


IX. TASHQI IQTISODIY FAOLIYAT


2024-yilning yanvar-mart oylarida viloyatning tashqi savdo aylanmasi 315,8 mln. AQSH dollari tashkil etgan, jumladan 130,0 mln. AQSH dollarini-eksport, 185,9 mln. AQSH dollarini import tashkil etdi. Tashqi savdo aylanmasining saldosı -55,9 mln. AQSH dollarini tashkil qildi.

Tashqi savdo aylanmasi dinamikasi
(mln. AQSH dollari)




Soʻngi yillarda xukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilishni, eksportni qoʻllab-quvvatlash, import oʻrnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida eksport tarkibida sezilarli oʻzgarishga erishildi. Jumladan, xom ashyo eksportidan, qoʻshilgan qiymati yuqori hamda sarmoya talab tovarlar eksportiga yoʻnaltirilgan tashqi savdo amalga oshirilmoqda.

2024- yil yanvar-mart oylari viloyat tashqi savdo aylanmasida
MDH va boshqa davlatlarning ulushi
(mln. AQSH dollar va foizda)



2023- yil yanvar-mart

2024- yil yanvar-mart



■ MDH davlatlar ■ Boshqa davlatlar

■ MDH davlatlar ■ Boshqa davlatlar

2024- yilning yanvar-mart oylarida viloyatda amalga oshirilgan tashqi savdo aylanmasi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 102,1 % ga, MDH davlatlari 91,5 % ni tashkil etgan bo'lsa, boshqa davlatlar 112,2 % ga ko'paygani kuzatildi.

Jumladan, jami eksport aylanmasi 100,7 % ni va shundan MDH davlatlari 94,6 % ni tashkil etgan bo'lsa, boshqa davlatlarga 123,5 % ni tashkil etdi.

Jami import aylanmasi 103,1 % ga ko'paygan bo'lib, undan MDH davlatlari 85,0 % ni tashkil etgan bo'lsa, boshqa davlatlar 109,9 % ga ko'paygan.

MDH va boshqa davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi
(mln. AQSH dollari)

	yanvar-mart		O'sish sur'ati, % da
	2023- yil	2024- yil	
Tashqi savdo aylanmasi	309,4	315,8	102,1
<i>shu jumladan:</i>			
MDH davlatlari	151,1	138,2	91,5
Boshqa davlatlar	158,3	177,6	112,2
Eksport	129,0	130,0	100,7
<i>shu jumladan:</i>			
MDH davlatlari	101,6	96,2	94,6
Boshqa davlatlar	27,4	33,8	123,5
Import	180,4	185,9	103,1
<i>shu jumladan:</i>			
MDH davlatlari	49,5	42,1	85,0
Boshqa davlatlar	130,9	143,8	109,9

MDH mamlakatlari va boshqa mamlakatlarga eksportning yo'nalishi bo'yicha farqlanishlar mavjudligi kuzatilmoqda. Xususan, MDH mamlakatlariga eksportning asosiy qismi oziq-ovqat mahsulotlariga to'g'ri kelmoqda, keyingi o'rinlarda eksport hajmi bo'yicha asosan yengil sanoat tovarlari, qora va rangli metallar, mashina va asbob-uskunalar va kimyo mahsulotlariga to'g'ri kelmoqda.

Viloyatdagi eksport-import tarkibi

	Umumiy hajm <i>mln.AQSH.dollr</i>		2023- yil yanvar-mart oylariga nisbatan % da
	2023- yil yanvar-mart	2024- yil yanvar-mart	
Eksport tarkibi	129,0	130,0	100,7
Oziq-ovqat va tirik hayvonlar	14,5	12,2	84,6
Ichimliklar va tamaki	1,1	0,7	60,4
Xom ashyo yoqilg'idan tashqari nooziq-ovqat hisoblanadi	1,7	3,5	205,4
Mineral yoqilg'i, moylash moylari va shunga o'xshash materiallar	0,0	1,8	-
Kimyoviy moddalar va shunga o'xshash mahsulotlar	0,9	0,7	79,7
Sanoat mahsulotlari	66,5	70,6	106,1
Mashinalar va transport uskunalari	4,3	5,1	119,0
Turli xil tayyor mahsulotlar	32,9	32,2	97,6
Xizmatlar	3,7	0,6	15,3
Boshqalar	3,4	2,6	-
Import tarkibi	180,4	185,9	103,1
Oziq-ovqat va tirik hayvonlar	30,5	28,2	92,6
Xom ashyo yoqilg'idan tashqari nooziq-ovqat hisoblanadi	10,1	8,7	85,7
Mineral yoqilg'i, moylash moylari va shunga o'xshash materiallar	2,9	3,7	-
Hayvonlar va o'simlik moylari, yog'lar va mumlar	4,6	2,9	63,1
Kimyoviy moddalar va shunga o'xshash mahsulotlar	19,9	21,9	110,1
Sanoat mahsulotlari	42,3	39,5	93,2
Mashinalar va transport uskunalari	56,4	70,7	125,3
Turli xil tayyor mahsulotlar	4,8	4,2	87,2
Boshqalar	0,0	0,7	-

2024- yil yanvar-mart oylarida eksport qilingan mahsulotlar va xizmatlar tarkibi bo'yicha tahlil qilinganda, (2023- yilning tegishli davriga nisbatan), Mashinalar va transport uskunalari 19,9 % ga ko'paygani kuzatildi.

**2024-yil yanvar-mart oylarida viloyat tashqi savdo aylanmasi
yuqori ulushga ega davlatlar**

(mln. AQSH dollari)

Davlatlar nomi	Tashqi savdo aylanmasi	Eksport	Import
Rossiya Federatsiyasi	101,9	83,2	18,7
Xitoy	90,2	13,2	77,0
Hindiston	21,4	0,1	21,4
Turkiya	19,1	6,2	12,9
Qozog'iston	12,5	3,7	8,8
Germaniya	10,5	2,8	7,7
Qirg'iziston	10,1	2,5	7,6
Belarus	6,1	1,5	4,6
Koreya Respublikasi	5,2	0,2	5,1
Polsha	3,8	2,9	0,9
Fransiya	3,1	0,0	3,1
Ukraina	2,4	1,6	0,9
Tojikiston	2,3	1,0	1,3
Malayziya	2,0	0,0	2,0
Eron	1,8	1,4	0,4
Ozarbayjon	1,7	1,5	0,1
Ispaniya	1,6	0,1	1,5
Latviya	1,6	0,2	1,4
Pokiston	1,6	0,9	0,6
Indoneziya	1,3	0,0	1,3

So'nggi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilishda, eksportni qo'llab-quvvatlash, import o'rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida, eksport tarkibida sezilarli o'zgarishga erishildi.


Namangan viloyati, jahonning 68 dan ortiq mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSA ning nisbatan salmoqli hissasi Rossiya Federatsiyasida (32,3 %), Xitoy Xalq Respublikasida (28,6 %), Qozog'istonda (4,0 %), Turkiyada (6,1 %), Qirg'iziston (3,2 %), Germaniya (3,3 %) va Belorussiya (1,9 %) qayd etilgan.

Shuningdek, qo‘shni davlatlar bilan o‘zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalaridagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko‘rish mumkin.

2024- yil yanvar-mart oylarida viloyat tashqi savdo aylanmasida katta ulushga ega bo‘lgan davlatlar

Davlatlar nomi	Viloyat tovar aylanmasida ulushi % da	2023- yil yanvar-mart oylariga nisbatan % da
Rossiya Federatsiyasi	32,3	101,5
Xitoy	28,6	141,3
Hindiston	6,8	4,7 m.
Turkiya	6,1	84,4
Qozog‘iston	4,0	45,6
Germaniya	3,3	82,2
Qirg‘iziston	3,2	104,8
Belarus	1,9	80,0
Koreya Respublikasi	1,7	88,6
Polsha	1,2	32,9
Fransiya	1,0	105,5
Ukraina	0,8	146,2
Tojikiston	0,7	145,1
Malayziya	0,6	65,6
Eron	0,6	80,2
Ozarbayjon	0,5	2,1 m.
Ispaniya	0,5	12,3 m.
Latviya	0,5	2,6 m.
Pokiston	0,5	8,0 m.
Indoneziya	0,4	123,6
Yaponiya	0,4	112,6
Italiya	0,4	33,1

2024- yil yanvar-mart oylarida jami eksport tovarlari
hajmida tarmoqlarning ulushi (% da)



2024-yil yanvar-mart oylarida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibi tahlili shuni ko'rsatdiki, 2023- yilning yanvar-mart oylarida amalga oshirilgan eksportning umumiy hajmiga nisbatan sanoat ulushi 54,3 %, har xil tayyor mahsulotlar eksportining ulushi 24,7 % ni hamda oziq ovqat va tirik hayvonlar eksportining ulushi esa 9,4 % ni tashkil etdi.

Xizmatlar eksporti hajmi 571,8 ming.AQSH dollarini yoki jami eksport hajmining 0,4 % ni tashkil etib, o'tgan-yilning mos davriga nisbatan 85,7 % ga kamayganligi kuzatildi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi transport xizmatlari, turizm xizmatlari, moliyaviy xizmatlaridan iborat.


2024- yil yanvar-mart oylarida jami eksport tovarlari
hajmi shahar va tumanlar kesmida
(ming AQSH dollari)

	yanvar-mart		O'sish sur'ati, % da
	2023- yil	2024- yil	
Viloyat jami	129 053,1	129 950,4	100,7
Namangan sh.	53 071,9	43 498,8	82,0
Mingbuloq	548,0	1 738,9	3,1 m.
Kosonsoy	15 920,4	18 929,1	118,9
Namangan t.	5 723,0	5 807,6	101,5
Norin	2 037,8	7 234,2	3,6 m.
Pop	3 032,2	3 697,7	121,9
To'raqo'rg'on	20 799,6	23 935,8	115,1
Uychi	8 073,3	11 487,7	142,3
Uchqo'rg'on	7 478,5	4 869,6	65,1
Chortoq	342,5	452,9	132,2
Chust	8 559,4	7 605,7	88,9
Yangiqo'rg'on	3 414,1	559,2	16,4

TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI

To‘qimachilik mahsulotlari eksporti hajmining oshishi bevosita paxta xomashyosi o‘rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo‘shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlarning natijasi ekanini ko‘rish mumkin. Jumladan, joriy yilda 75,7 mln.AQSh dollarlik to‘qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning 58.2 % ini tashkil etdi va o‘tgan yilga nisbatan 4,2 % ga kopaydi.

**2024- yil yanvar-mart oylarida viloyat eksportida
asosiy hamkor davlatlarning ulushi, (% da)**



Viloyatdan eksport qilinayotgan tovar va xizmatlarning asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Turkiya, Polsha va Germaniya davlatlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda. Bu esa umumiy eksport xajmining 88,2 % tashkil qiladi.

Rossiya Federatsiyasi, Qozog‘iston, Xitoy Xalq Respublikasi, Qirg‘iziston, Polsha, Turkiya, va Germaniya davlatlariga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga nazar tashlasak, asosan yengil sanoat mahsulotlari oziq-ovqat mahsulotlari guruhlaridan iborat ekanligini ko‘rishimiz mumkin.


2024- yil yanvar-mart oylarida jami import tovarlari
hajmi shahar va tumanlar kesmida

(ming AQSH dollari)

	Yanvar–mart		O‘shish sur‘ati, %da
	2023- yil	2024- yil	
Viloyat jami	180 414,8	185 875,6	103,0
Namangan sh.	95 183,3	10 3974,5	109,2
Mingbuloq	1 641,7	918,6	56,0
Kosonsoy	4 971,0	5 094,1	102,5
Namangan t.	7 169,4	10 376,7	144,7
Norin	13 630,8	6 033,6	44,3
Pop	5 715,4	5 059,4	88,5
To‘raqo‘rg‘on	14 527,6	21 241,4	146,2
Uychi	12 238,5	9 604,7	78,5
Uchqo‘rg‘on	2 143,2	1 819,5	84,9
Chortoq	6 670,2	8 659,2	129,8
Chust	10 788,1	10 258,7	95,1
Yangiqo‘rg‘on	5 691,0	2 835,2	49,8

Joriy davrda import qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibi tahlili shuni ko‘rsatdiki, 2024-yilning yanvar-mart oylarida amalga oshirilgan importning umumiy hajmiga nisbatan mashina va uskunalarning importining ulushi 38,0 % ni, sanoat mahsulotlari importining ulushi 21,2 % ni, oziq-ovqat mahsulotlari importining ulushi 15,2 % ni hamda kimyoviy moddalar va shunga o‘xshash mahsulotlar importining ulushi esa 11,8 % ni tashkil etdi.

2024- yil yanvar-mart oylarida jami import tovarlari hajmida tarmoqlarning ulushi (% da)



2024- yil yanvar-mart oylarida viloyat importida asosiy hamkor davlatlar ulishi

2024- yil yanvar-mart oylarida viloyatga 67 ta xorijiy davlatlardan tovar va xizmatlar importi amalga oshirilgan. Shundan 7 ta eng yirik bo'lgan Xitoy Xalq Respublikasi, Hindiston, Rossiya Federatsiyasi, Turkiya, Qozog'iston, Germaniya, Qirg'iziston kabi xamkor davlatlarning jami import hajmi 111,7 mln AQSH dollarga teng. Bu esa umumiy import hajmining 82,9 % ni tashkil qiladi.

